

ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



VOLUME 3, ISSUE 4 **2025**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4



TOSHKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-4>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

FILOLOGIYA

1. Искандарова Нодира Бахрамбековна
ВОСТОК В ЗАПАДНОМ КОНТЕКСТЕ: АДАПТАЦИЯ ОРИЕНТАЛЬНЫХ ОБРАЗОВ В
НЕМЕЦКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XIX-XX ВЕКОВ.....7
2. Сапаева Хилола Бахромбековна
ЭКОЛОГИЯ И УТИЛИЗАЦИЯ ОТХОДОВ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕРМИНОВ В
РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ.....14
3. Mamirova Xayriniso Komiljon qizi
BOLALAR NUTQIDA KO‘P MA’NOLI SO‘ZLARINING O‘ZLASHTIRILISHI: KOGNITIV VA
PSIXOLINGVISTIK YONDASHUVLAR.....18
4. Pulat Fozilov
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FIZIOLOGIK HOLAT FE‘LLARINING IZOHLI
LUG‘ATLARDAGI TALQINI.....23
5. Masharipov Jakhongir Axmedovich
MORPHOLOGICAL CHALLENGES IN TRANSLATING TRANSPORT TERMINOLOGY
BETWEEN ENGLISH AND UZBEK.....28

IQTISODIYOT

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA QULAY INVESTITSION MUHITNI SHAKLLANTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....32
2. Sattarova Dilfuza Dilshodbekovna
MINTAQADA IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLIVASI
TASHKIOTLARINI JALB QILISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....38
3. Mavlanova Barchinoy Shonazar qizi
XORAZM VILOYATI MINTAQASIDA ERKIN IQTISODIY ZONALAR SAMARADORLIGINI
OSHIRISHNING INNOVATSION YO‘NALISHLARI.....45

PEDAGOGIKA

1. Usanova Zulfiya Bozorovna
HOZIRGI INNOVATSION TA‘LIM MUHITIDA PEDAGOGIK HAMKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK TIZIMI (OLIY VA UMUMIY O‘RTA TA‘LIM
MISOLIDA).....54

TARIX

1. Tuyev Fazliddin Erkinovich
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING KIRITILISHI:
2003-2008 YILLAR ZARAFSHON VOHASI MISOLIDA.....59
2. Jumaniyazov Bekzod Ochilovich, Sabanova Nilufar Baxodir qizi
FUQAROLIK JAMIYATI TARIXIY BOSQICHLARI.....64

3. Salayev Dilshodbek Jumanazarovich TURKIY DAVLATLAR INTEGRATSIYASINING TADRIJI (EVOLYUTSIYASI) VA O'ZBEKISTONNING TASHKILOTGA A'ZO BO'LISHI.....	68
4. Xayitmuratova Zaynura G'aybullayevna QADIMGY MARKAZIY OSIYO XALQLARINING METROLOGIK TIZIMI: O'LCHOV BIRLIKLARINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.....	73
5. Muborak Madrimovna Matyakubova XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHI VA UNING IQTISODIY HAYOTGA TA'SIRI.....	78
6. Xayitov Shodmon Ahmadovich MILLAT FIDOIYSI, OZODLIK VA ERKINLIKNING TOLMAS KURASHCHISI (MAHMUD XO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY MEROSIGA BIR NAZAR).....	83
7. Matyaqubova Nozima Maksatbayevna QADIMGY XORAZM SUG'ORISH TIZIMLARI OQCHADARYO VA SARIQAMISHBO'YI O'ZANLARI ASOSIDA DEHQONCHILIK VA MADANIY TARAQQIYOT.....	89
8. Durdona Jamolova BUXORODA GIDLIK XIZMATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY RISOLALAR VA MATBUOT MATERIALLARINING MANBAVIY AHAMIYATI.....	93
9. Egamov Yusufboy Ergashbek o'g'li O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING DAVLAT BOSHQARUVI VA QONUNCHILIK JARAYONLARIDA ISHTIROKINI MUSTAHKAMLASHDA YOSHLAR PARLAMENTINING O'RNI.....	98
10. Matnazarova Gulnoz Baxtiyorovna QUYI AMUDARYO HUDUDIDA NEOLIT DAVRI POLEOGEOGRAFIYASI HOLATI, O'ZLASHTIRISH BOSQICHLARI.....	103
11. Sanjarbek Davletov, Kamronbek Davlatov YANGI O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA VA HAMKORLIK.....	107
12. Salimov Matyusuf Kodirberganovich XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI.....	111
13. O'g'iloy Erbo'tayeva Suyunovna IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA DEPORTATSIYA QILINGAN XALQLAR TAQDIRI.....	115
14. Qurbonova Sevara Sodiq qizi XORAZM VOHASIDA URUG'CHILIK JAMIYATINING GEOSIYOSIY SHAKLLANISHI.....	120
15. Сулайманова Сохиба Баходировна СУҒД ВОҲАСИНИНГ ҚАДИМГИ ПАНЧ ТАНГАЛАРИ.....	125
16. Bahridil Ergasheva O'ZBEK XALQINING BOLA TARBIYASIGA OID USULLARI: TARIXIY-ETNOGRAFIK YONDOSHUV.....	129

Salimov Matyusuf Kodirberganovich-
Urganch davlat pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: salimovmatyusuf123@gmail.com

XX ASR BOSHLARIDA NIZOMIDDIN OXUN SALIMOVNING TA'LIM TIZIMIDAGI FAOLIYATI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15362996>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Xiva xonligi davrida tugʻilib, Xiva madrasalari va yangi usul maktablarida ta'lim olib, madrasa va jadid maktablarida mudarris va o'qituvchi bo'lib faoliyat olib borgan, qatog'on siyosati davrida ta'qibga uchrab, umrining oxirigacha yashirin hayot kechirgan qozikalon Muhammad Salim oxun farzandi Nizomiddin oxun Salimovning hayoti va faoliyati haqida so'z yuritamiz.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xiva, Gurlan, oxun, mudarris, qozikalon, xattot, jadid, madrasa, dorulmudarris, texnikum, eshon.

Salimov Matyusuf Kodirberganovich-
independent researcher at Urgench
State Pedagogical Institute

THE ACTIVITIES OF NIZOMIDDIN AKHUN SALIMOV IN THE EDUCATION SYSTEM AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

ABSTRACT

In this article, we will talk about the life and work of Nizomiddin Akhun Salimov, the son of Qazikalon Muhammad Salim Akhun, who was born during the Khiva Khanate, studied in Khiva madrasas and new-style schools, worked as a teacher and a teacher in madrasas and new schools, was persecuted during the period of repression, and lived a secret life until the end of his life.

Keywords: Khorezm, Khiva, Gurlan, akhun, mudarris, qazikalon, calligrapher, jadid, madrasa, dorulmudarris, technical school, eshan.

Салимов Матюсуф Кодирбергенович-
независимый исследователь Ургенчского
государственного педагогического института

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ НИЗОМИДДИНА АХУНА САЛИМОВА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

АННОТАЦИЯ

В этой статье мы расскажем о жизни и деятельности Низомиддина Ахуна Салимова, сына Казикалона Мухаммада Салима Ахуна, который родился во времена Хивинского ханства,

учился в хивинских медресе и школах нового образца, работал учителем и преподавателем в медресе и новых школах, подвергался преследованиям в период репрессий и до конца жизни вел скрытный образ жизни.

Ключевые слова: Хорезм, Хива, Гурлан, ахун, мударрис, казикалон, каллиграф, джадид, медресе, дорулмударрис, техникум, эшан.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Xiva xoni Muhammad Rahimxon soniy-Feruz mustamlaka xonlik hukmdori bo'lsada, xonlikni har tomonlama rivojlantirish maqsadida, ayniqsa ilm-ma'rifatni yuksaltirish borasida ko'plab sa'y-harakatlar qildi. Shu sababli xonlikda ko'plab madrasalar barpo qilish bilan birga, o'z davrining ilg'or ta'lim tizimi hisoblangan jadid maktablarini ochishga qarshilik qilmadi, balki hayrixoh bo'ldi. Bu bilan Xorazm vohasida kelgusida jadid ziyolilari yetishib chiqishiga bir omil bo'ldi. Nizomiddin oxun Salimov shu davrda dunyoga kelib, madrasa va jadid maktablarida ta'lim olib, dastlab madrasalarda mudarrislik qilgan bo'lsa, keyinchalik Xorazm Respublikasi davrida yangi tashkil qilingan madrasa va maktablarda mudarris, o'qituvchi bo'lib faoliyat olib bordi. Maktab o'quvchilari uchun darslik kitoblari yozdi, shoir va olimlar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, risola va kitoblar yaratdi. Qatag'on siyosati davrida ta'qibga uchrab, umrining oxirigacha yashirin hayot kechirishga majbur bo'ldi.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Nizomiddin oxun Salimovning hayoti, ta'lim tizimidagi faoliyatlarini va ser qirra ijodini yoritishda tadqiqotchi olimlarimizdan Umid Bekmuhammad, Bahrom Irzayev va Hamidbek Yusupovlarning maqola va monografiyalaridan, "Tarjimon" gazetasining 1883-1916-yillardagi sonlarining bibliografiyasidan, Qodirbergan hoji Nizomiddin oxun o'g'li bilan suhbatda yozib olingan ma'lumotlar, hamda avlodlari shaxsiy arxivida saqlanayotgan tarixiy hujjatlardan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qozikalon Muhammad Salim oxunning xotira kundaligida Nizomiddin oxun Salimovni hijriy 1308-yil zulqada oyining 21-kuni/1891-yil 28-iyun, yakshanba kuni dunyoga kelganligi qayd qilingan. Nizomiddin oxun qozikalon oilasida beshinchi farzand edi. Yosh xivaliklar harakatining faol a'zosi, Xorazm Respublikasining birinchi Adliya noziri- jadid Boboaxon Salimovning inisi edi. U yoshligidan ilm olishga ishtiyoqi kuchli bo'lganligi sababli dastlabki ta'limni otasidan olib, madrasa ta'limining avvalgi bosqichi "darsi avval" ilmini 10 yoshida tugatadi. O'qishni davom qildirib tez orada madrasa ta'limini yakunlab, oilaviy an'anasiga ko'ra madrasadan keyingi ta'limni 5 yil davomida otasidan oladi. Hamda madrasalarda o'qib yurgan o'spirinlik davrlaridan boshlab Qadam yasovulboshi, Qozikalon madrasalarda ta'lim berish bilan ham shug'ullangan, ya'ni mudarrislik, oxunlik qilgan. Ilmi va odob-axloqi bilan ham xalq nazariga tushgan. Shuning uchun ismiga "oxun" yoki "maxdum eshon" unvonini (kunasini) qo'shib atashgan. Bu vaqtga kelib Xiva xoni Muhammad Rahimxon soniy-Feruz hoirixohligida, Asfandiyor to'ra, Islomxo'ja va Mamat mahramlar tashabbuslari bilan Xorazm vohasida jadid maktablari tashkil etilgan edi. Nizomiddin oxunning otasi qozikalon Muhammad Salim oxun ham bu maktab o'quvchilarini sinov imtihonlarini olish jarayonlarida qatnashganligini "Tarjimon" gazetasida chop qilingan maqolalarda ham keltirilgan. Bundan qozikalon xonlikning din peshvosi sifatida, jadid maktablarining faoliyatiga qarshi emasligini, balki farzandlarining ham jadid maktablarida ta'lim olishiga hoirixoh ekanligidan dalolat beradi.

Bu haqda Qodirbergan hoji otasi Nizomiddin oxun haqida quyidagicha eslaydi: "Muhammad Rahimxon Feruzning xonlik davrida tatar musulmon olim-o'qituvchilari bilan shartnoma, kelishuv asosida Xivaga taklif qilinib, Xorazm talabalarini, yoshlarini dunyoviy ilmlardan o'qitish maqsadida, ikkita yo'nalish bo'yicha qisqa muddatli maxsus kurslar tashkil qilgan. Bu ikkita kurslarning biriga, algebra bilan geometriya fanlarini qo'shib "al-jabr"deb, geografiya bilan tarix fanlarini qo'shib "jo'g'rafiya" deb nomlagan. Ikkita kursga 100 nafardan ziyod talaba yoshlarni qabul qilgan. Bu ikkita kursni faqat 15-16 nafar talaba muvaffaqiyatli tugatgan, otam ham bu kurslarni o'qib tugatgan edi".

1920-yil Xorazm Respublikasi davrida Nozirliklar tuzildi. Maorif nozirligi huzirida Vaqf bo'limi tashkil qilindi. Bu bo'lim madrasa, qorixona, masjid, maktablarni va boshqa diniy tashkilotlarni, shu bilan birga vaqf mulklarni ham boshqarish va madrasalar faoliyatini tugatish, madrasalardagi ta'lim tizimini isloh qilib, yangi usul maktab va madrasalar faoliyatini yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan edi. Shunday bo'lsada, madrasalarda an'anaviy ta'lim tizimi faoliyati 1928-yilgacha davom qildi.

1924-yil 13-avgustdagi Maorif xalq nozirligining qaroriga binoan Muhammad Aminxon madrasasi yangi usul madrasasiga aylantirilib Abulg'oziy Muarrix nomi berildi. Dastlab bu maskan "Dorul mudarrisin" maktabi deb, keyinchalik "Ta'lim-tarbiya" texnikumi nomi bilan ataldi. Bu maskan o'qituvchilarni tayyorlash texnikumi bo'lib, 1924-yil dekabr oyida o'qish istagida bo'lgan 140 nafar yoshlar orasidan qabul komissiyasi tomonidan suhbat asosida 91 nafar yoshlarni tanlab olindi va 1925-yil 7-yanvar kundan o'z faoliyatini boshladi.

Nizomiddin oxun ham qabul komissiyasi a'zolariga tayinlangan. Buni quyidagi tarixiy hujjatda ko'rish mumkin: "Ushbu shahodatnoma beriladi birodar Nizomiddin maxzum qozi Salim o'g'liga, shul xususidakim, o'quv idorasi tarafidin tozadin ochulajaq Abulg'oziy Muarrix madrasasiga talabalarni qabul etib olurg'a komissiya tayin etildi. Endi kerakkim, mazkur birodar komissiyalar bilan birgalikda zimmasig'a lozim bo'lg'on vazifasin ado etub turmog'i kerak",- deb, O'zbek viloyat o'quv boshlig'i, tashkilot mudiri va sarkotiblar imzo qo'yanlar. Hujjatda to'rtburchak (stamp) muhr ham bor bo'lib, Xorazm viloyat bosh o'quv bo'limi, 1924-yil 22-dekabr, Xiva shahri, 929-raqam bilan ro'yxatga olinganligi qayd qilingan.

Yana bir tarixiy hujjatda, Nizomiddin oxunni fan muallimi qilib tayinlanganligi keltirilgan: "1925-yil 10-fevralda Xiva viloyat maorif sho'basini chiqarg'on 22-nomerli buyruqini 1-moddasidin kufiya. Dorulmudarrisin o'qituvchisi Nizomiddin Muhammad Salim o'g'li arizasiga binoan mazkur birodarni 1-fevraldan e'tiboran madrasa mazkurga fan muallimlar qatoridin tayin etulsun va ham 12-sinf oyliq ila tayin etulsun, har oyiga 30 soat soatliq, har soatiga 1so'm 50 tiyindin berilur, hamda kechki muzokara vaqtida 2 soat, har vaqt tayyor bo'lsin. Aslig'a Xiva viloyat maorif sho'ba mudiri birodar Muxtor Bakirov qo'l qo'yg'andur, aslidin to'g'ri Qalandar Hojiyev". Hujjatning orqa qismida: "Dorulmudarrisin mudiriga ma'lumot uchun sarkotib"-deb imzo qo'yilgan.

Shu bilan birga 1925-yilda qayta tayorlav kursida ham o'qiganligini tarixiy hujjat "Shahodatnoma"dan bilib olishimiz mumkin: "O'rtoq Nizomiddin Salim o'g'liga 1925-yildagi 3 $\frac{1}{2}$ oyliq qishloq ovul muallimlarining qaytadan tayyorlash kursining darslarini tingladi. Shuning to'g'riliqi tasdiq qilunib shahodatnoma qo'lina berildi. Shuni muhr imzolar bilan rasmlashtirildi"-deb kurs mudiri, o'quv komissiyasi mudiri, sarkotiblar imzo qo'yib muhr bosilgan. Hujjatda to'rtburchak (stamp) muhr bo'lib: "O.S.J. Xorazm viloyat maorif sho'basi qaramoqidagi ta'lim va takror kursi 1925-yil sentabr, 44-raqam",-deb qayd qilingan.

Yana bir tarixiy hujjat "Chaqiruv qog'ozi" bo'lib, Nizomiddin oxunni 1926-yil 13-may payshanba kuni kech soat 6 da Xorazm viloyat ta'lim-tarbiya texnikumida birinchi marotaba Xorazm o'qituvchilarni chiqarish marosimiga (majlisiga) taklif qilingan, texnikum idorasi tomonidan. Bu taklifnoma "Inqilob quyoshi" bosmaxonasida 200 nusxada chop qilingan.

1927-yil 20-yanvar kuni viloyat maorifining buyruqi bilan Nizomiddin oxun Gurlan rayon 1-bosqich ish maktabiga muallim qilib yuborilgan. Nizomiddin oxun bu maktabda qisqa faoliyat olib borgan, chunki akasi Boboovun Salimov bu davrga kelib davlat ishlaridan ketib, ta'qibga olinganligi sababli yashirin hayot kechirishga majbur bo'lgan. 1929-yil 10-may kuni Boboovun Salimov vafotidan keyin, boshqa ziyolilar qatori qozikalon farzandlariga nisbatan ta'qib kuchaya boshlagan edi. 1929-yil 31-yanvar kuni "Yerdan mehnatsiz foydalanishni tugatadigan Gurlan rayon yer komissiyasi" tomonidan qozikalon avlodlariga tegishli 88 tonob yer, uy (Gurlan tumanidagi ota hovli), g'alla, charvo mollari va boshqa xo'jalik ashyolarni davlat foydasiga musadora qilib tortib olingan edi. Nizomiddin oxun uzoq qarindoshi Otaniyoz maxdumning ikki xonali eski omborxonasida hayot kechirishga majbur bo'ladi. 1930-yil 15-may kuni akasi Imomiddin oxun Salimovning "uchlik" qarori bilan To'rtko'l shahrida OGPU organ vakillari tomonidan otib o'ldirishi, ukasi Inayatulloh oxunning 1932-yil qamoqqa olinishi Nizomiddin oxun

uchun juda og'ir bo'ldi. Ikkinchi jahon urushi davrida, undan keyin ham NKVD xodimlari tomonidan tergovga olib ketilib so'roq qilinishi, doim kuzatuvda bo'lishi Nizomiddin oxunning umrining oxirigacha davom qildi.

1951-yil turmush o'rtog'i Saodatjon aya Muhammad Sharif xo'ja qizining vafotidan keyin, oilasi bilan Amudaryo tumani "Eshonqal'a" qishlog'iga ketishga majbur bo'ladi. U yerda ham do'stlari Rahmatulloh oxun eshon, Muhammad Karim eshon, mullo Karim maxdum, Muhammad Safo eshon, Bobojon eshon va Yaxshimurod bobolar yordamiga tayanib yashirin hayot kechirdi. 1959-yil O'razmat Quchqarov, Soliy Karimov va O'rozboy Isoyev do'stlari yordamida yana Gurlan tumani yangi imorat qurib, o'g'li Qodirbergan, qizlari Zaynab va Xaticha bilan umrining oxirigacha, 1970-yil yanvarigacha Gurlan tumanida yashadi. 1960-yillarda hayot tarzi bir oz yaxshi tomonga o'zgargan bo'lsada, maxsus xodimlar uyiga kelib uchrashib, tergov sifatida suhbatlashib turishgan.

Nizomiddin oxun bu murakkab qiyin davrga qaramay, ilm yo'lida ijod qilib, xattotlik va tarjimonlik faoliyati bilan mustaqil shug'ullanib kitoblardan nusxa ko'chirdi, Abdurahmon Jomiy, Abduqodir Bedil asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib sharhlar yozdi. Hisob ilmiga, arab tili grammatikasiga doir, "Musonama" nomli tarixiy, bolalar uchun "Alifbe", "O'qish" nomli darslik kitob va risolalar yaratdi.

Nizomiddin oxunning vafoti: "tarix Nizomiddin oxund eshon qoddasallohu ruhahu sana hijratning 1389-yili zulqa'da oyining 24, ya'ni juma oqshomi vafoti voqea bo'ldi. Sana milodiy 1970-yil 29-yanvar", deb qayd qilingan. Qabri Amudaryo tumanidagi Salomat bobo qabristonidagi avlodlari maqbarasida joylashgan.

XULOSA

Nizomiddin oxun Salimov ilm olishga ishtiyoqi kuchli bo'lganligi sababli madrasalarda ta'lim olishni qisqa muddatda tugatib, madrasalarda mudarris bo'lib faoliyat olib bordi. Yoshlik paytidan xalq orasida hurmat, e'tiboriga sazovor bo'ldi. Xorazmdagi yangi usul jadid maktablarida ta'lim olib, dunyoviy ilmlarni o'rgandi. Xorazm Respublikasi va undan keyingi davrlarda yangi ochilgan ta'lim maskanlarida yoshlarga ta'lim berib, o'z vatanining kelajagi uchun xizmat qildi. Xorazm xattotlik va tarjimonlik maktabi an'analari davomchisi sifatida xattotlik va tarjimonlik bilan ham shug'ullandi. Ilm yo'lida ijod qilib, kelasi avlod uchun kitob va risolalar yaratdi. 80 yil umr ko'rgan bo'lsada, umrining yarmi ta'qibda, qochqinlikda yashashga majbur bo'ldi. Turli xil davr siyosati bilan ham nafas bo'ldi. Shunga qaramay o'zining serqirra faoliyati, ibratli hayoti bilan yashab o'tdi.

Iqtiboslar/References/Сноски

1. Umid Bekmuhammad. Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi. "Milleniumus print" nashriyoti. Urganch 2024-yil.
2. Yusupov H. XIX-XX asr boshlarida Xiva madrasalari. "Durdona" nashriyoti Buxoro-2025.
3. Qozikalon Muhammad Salim oxun xotira kundaligi. Tarixiy hujjatlar arxivi. Qo'lyozma. Shaxsiy arxiv.
4. Qodirbergan hoji Nizomiddin oxun o'g'li bilan suhbatdan yozib olingan materiallar, 2012-yil.
5. Yusupov P. Yosh xivaliklar tarixi. "Xorazm" nashriyoti. Urganch-2000.
6. Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandar. Bobo oxun Salimov-jadid, davlat arbobi va shoir. "Milleniumus print" nashriyoti, Urganch-2024.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 4 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HONEP 4

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 4

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000